



DAVLAT QARZI VA UNING OQIBATLARI

Boxodirxonova Shaxnozaxon Boxodirxonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Buxgalteriya hisobi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15082956>

Annotatsiya: Ushbu maqola davlat qarzi, uning sabablari, iqtisodiyotga ta'siri haqida ma'lumot beradi. Qarz yig'ilishiga olib keluvchi omillar, byudjet taqchilligi, iqtisodiy inqirozlar, fiskal boshqaruvdagi muammolar, shuningdek, ortiqcha qarzning oqibatlari, inflyatsiya kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Eng katta va kichik davlat qarziga ega davlatlar taqqoslab o'rganiladi. O'zbekistonning davlat qarzi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Davlat qarzi, davlat qarz olishi, fiskal taqchillik, qarzning YAIMga nisbati, iqtisodiy oqibatlar, tashqi qarz, ichki qarz, qarz boshqaruvi, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston davlat qarzi, global qarz .

Аннотация: В этой статье представлена информация о государственном долге, его причинах, влиянии на экономику. Рассматриваются такие вопросы, как факторы, способствующие накоплению долга, бюджетный дефицит, экономические кризисы, проблемы в фискальном управлении, а также последствия чрезмерного долга, инфляции. Страны с наибольшим и наименьшим государственным долгом изучаются сравнительно. Анализируются статистические данные по государственному долгу Узбекистана.

Ключевые слова: Государственный долг, государственный заем, фискальный дефицит, отношение долга к ВВП, экономические последствия, внешний долг, внутренний долг, управление долгом, экономический рост, государственный долг Узбекистана, глобальный долг.

Abstract: This article provides information about public debt, its causes, its impact on the economy. Issues such as factors leading to debt accumulation, budget deficits, economic crises, problems in fiscal management, as well as the consequences of excessive debt, inflation are considered. Countries with the largest and smallest public debt are studied by comparison. Statistics on the state debt of Uzbekistan are analyzed.

Key words: National debt, government borrowing, fiscal deficit, debt-to-GDP ratio, economic consequences, external debt, domestic debt, debt management, public finance, economic growth, financial stability, Uzbekistan's national debt, global debt crisis, inflation, monetary policy.






Hozirgi davrda davlat qarzi global iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, ko'plab mamlakatlarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Davlatlar turli sabablarga ko'ra qarz olishga majbur bo'lishadi: infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, ijtimoiy dasturlarni qo'llab-quvvatlash, byudjet taqchilligini qoplash va iqtisodiy inqirozlarga qarshi kurash. Biroq, davlat qarzining haddan tashqari oshib ketishi iqtisodiy xavf-xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Davlat qarzining samarali boshqaruvi iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda qarz boshqaruvi strategiyalari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda bu borada hali ham muammolar mavjud. Shu sababli, davlat qarzining sabablarini, oqibatlarini va uni boshqarish bo'yicha samarali choralarni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda davlat qarzini tog'ri boshqarish, hajmini kamaytirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. 2023-yil 11-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi 158-son Farmoni¹ qabul qilindi. Hujjat O'zA tomonidan chop etildi. Ushbu strategiyasida davlat qarzini boshqarish va fiskal barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Strategiyada yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini oshirish, aholi jon boshiga daromadlarni ko'paytirish, inflyatsiyani pasaytirish, pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini muvofiqlashtirish hamda tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida ushlab turish ko'zda tutilgan. Ushbu maqsadlarga erishish orqali davlat qarzini samarali boshqarish va fiskal barqarorlikni ta'minlash rejalashtirilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakat iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan har qanday yirik yoki kichik soha tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tarmoqning rivojlanishida esa hukumat tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, farmonlar va buyruqlar muhim rol o'ynab, uning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida davlat qarzi va uning boshqaruviga oid munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2022-yil 29-mart kuni Qonunchilik palatasi tomonidan "Davlat qarzi to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, 2022-yil 4-avgustda Senat tomonidan tasdiqlandi. Ushbu Qonunning maqsadi davlat qarzi va uni boshqarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.²





Mazkur maqolada davlat qarzining kelib chiqish sabablari, uning iqtisodiyotga ta'siri hamda qarzni kamaytirish bo'yicha mumkin bo'lgan yechimlar tahlil qilinadi. O'zbekiston misolida davlat qarzining hozirgi holati va boshqaruv strategiyalari ko'rib chiqilib, yakuniy xulosalar beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolani yoritishda O'zbekiston Respublikasining qonunlari, iqtisodiyot sohasidagi ilmiy asarlar, ularning mazmun, mohiyati o'rganilib, mazkur sektorni rivojlantiruvchi mavjud ko'rsatkichlar statistik tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil, an'anaviy tadqiqot usullaridan, ya'ni kuzatuv, taqqoslama usullari qo'llanilgan. Mavzuni yoritishda ilmiy-texnikaviy axborot manbalari, o'quv qo'llanmalar, davriy nashrlar, ilmiy-amaliy materiallar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Qo'shimcha qilib 2024 yil holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari tahliliy usullar yordamida barcha kreditorlar bo'yicha tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Davlat qarzi- bu hukumat tomonidan ichki yoki tashqi kreditorlardan qarz olgan mablag'lar to'plami. Davlat qarzi tarkibiga ko'ra ushbu turlarga bo'linadi: ichki va tashqi. To'lov davriga ko'ra uzoq va qisqa muddatli turlari bor. Ichki qarz – mamlakat ichkarisidagi banklar, tashkilotlar yoki aholidan olingan qarz. Tashqi qarz – xalqaro moliyaviy tashkilotlar (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi), boshqa davlatlar yoki xorijiy investorlar tomonidan berilgan qarz. Davlat qarz olishi uchun quyidagilar sabab bo'la oladi:


- Byudjet taqchilligi
- Iqtisodiy inqirozlar va favqullodda vaziyatlar
- Investitsiya loyihalari
- Fiskal siyosat
- Foiz stavkalari
- Valyuta kurslari

Davlat o'z daromadlari bilan harajatlarini qoplay olmay qolganda byudjet taqchilligi paydo bo'ladi va u qarz ko'tarish yo'li bilan qoplanadi. Davlat qarzni turli qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, zayomlar chiqarib sotish, moliya muassasasi (bank)dan ssuda olish va boshqa usullar bilan oladi. Investitsiya davlat qarzi deb hisoblanmaydi.³ Iqtisodiy inqirozlar, tabiiy ofatlar yoki pandemiyalar kabi kutilmagan hodisalar davlat xarajatlarini oshiradi. 2020-





yildagi COVID-19 pandemiyasi davrida davlatlarning qarz darajasi sezilarli darajada oshgan. Bunday vaziyatlarda davlatlar qo‘shimcha mablag‘ olish uchun qarz olishga majbur bo‘ladilar.



1-rasm. COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo‘ylab davlat qarzining oshishiga olib kelishi⁴

Ba‘zi hollarda davlatlar iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish yoki ishsizlikni kamaytirish maqsadida soliq stavkalarini pasaytiradilar yoki davlat xarajatlarini oshiradilar, bu esa qarz olishga olib keladi. Xalqaro moliya bozorlaridagi past foiz stavkalari davlatlarni arzonroq qarz olishga undaydi, chunki bu mablag‘lar iqtisodiy rivojlanishga yo‘naltirilishi mumkin. Milliy valyutaning qadrsizlanishi ham tashqi qarzning oshishiga olib kelishi mumkin, chunki tashqi qarzlar odatda xorijiy valyutada olinadi va milliy valyutaning qadrsizlanishi bilan qarz yukining oshishiga sabab bo‘ladi. Lekin, har doim ham salbiy omillar tufayli davlat qarz olmaydi. Davlatlar infratuzilma, ta‘lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalarda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qarz oladilar. Misol uchun yo‘llar, ko‘priklar, elektr stansiyalari qurulishi uchun davlat qarz olishi mumkin. Ushbu loyihalar kelajakda iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shishi kutiladi. Lekin noto‘g‘ri boshqarilsa, inflatsiya va iqtisodiy inqirozga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu omillar davlat qarzining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi va har bir mamlakatning iqtisodiy siyosati, ichki va tashqi sharoitlariga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi.

Davlat qarzi qanchalik ko‘p bo‘lsa iqtisodiy ahvol shunchalik yomon deganimi? Yo‘q, davlat qarzining kam yoki ko‘p bo‘lishi iqtisodiy ahvolning faqat bitta omili hisoblanadi. Yuqori davlat qarzi har doim ham yomon iqtisodiy







holatni anglatmaydi, xuddi past davlat qarzi har doim ham yaxshi iqtisodiy holatni bildiravermaganili kabi. Davlatlarning qarz darajasi ko'pincha yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbatan foiz ko'rsatkichi sifatida o'lchanadi. Ushbu ko'rsatkichning eng yuqori chegarasi Maastrixt (1992-yil 7-fevralda Niderlandiyaning Maastrixt shahrida imzolangan) kelishuvi mezonlariga ko'ra, 60 foiz, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Yevropa Ittifoqining ko'rsatmalariga muvofiq 50 foizdan ortmasligi tavsiya qilinadi. Agar dunyodagi tashqi qarz geografiyasiga nazar tashlansa, davlat qarzining nisbiy va absolyut qiymatlariga ko'ra eng yuqori daraja AQSH, Yaponiya, va Yevropa Ittifoqi (YI) mamlakatlariga to'g'ri keladi.⁵ Quyidagi jadvalda ayni davrda dunyo bo'yicha eng ko'p davlat qarzigaga ega davlatlar bilan eng kam davlat qarzigaga ega davlatlar ko'rsatilgan.

Eng yuqori davlat qarzi darajasiga ega davlatlar	YAIMga nisbatan foizda ko'rsatkichi	Eng past davlat qarzi darajasiga ega davlatlar	YAIMga nisbatan foizda ko'rsatkichi
Yaponiya	216.3	Kuvayt	0.3
Livan	195.2	Afg'oniston	7.4
Singapur	173.4	Rossiya	14.6
Yunoniston	158.2	Botsvanna	23.3
Venesuela	148.2	Estoniya	24

1-jadval. Dunyo davlatlarining qarz darajasi (2023-2024 yillar)⁶

Past davlat qarzining quyidagicha ijobiy hamda salbiy tomonlari bor:





2-rasm. Past davlat qarzining ijobiy va salbiy tomonlari

Ijobiy tomonlari:


1. Barqaror iqtisodiyot – agar davlat byudjet taqchilligini minimallashtirib, daromad va xarajatlarni muvozanatda ushlasa, bu iqtisodiy barqarorlik belgisidir.
2. Investorlar uchun qulay va foydali imkoniyat – kam qarzli davlatlar investorlar uchun xavfsizroq ko‘rinadi, chunki bunday mamlakatlarda to‘lov qobiliyati yuqori bo‘ladi.
3. Kam foiz xarajatlari – davlat qarzining past bo‘lishi foiz to‘lovlari yukini kamaytiradi va byudjet mablag‘lari infratuzilma, ta‘lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalarga yo‘naltirilishi mumkin.

Salbiy tomonlari:

1. Moliyaviy cheklovlar – Davlat past qarz darajasini saqlab qolish uchun davlat xarajatlarini qisqartirishi mumkin, bu esa iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtirishi mumkin.
2. Kam investitsiyalar – Ba‘zi holatlarda, davlat yetarlicha mablag‘ga ega bo‘lmagani uchun infratuzilma yoki boshqa muhim sohalarga investitsiya qilmaydi, bu esa uzoq muddatda iqtisodiy o‘shishni cheklashi mumkin.
3. Past iqtisodiy faollik – Agar davlat xarajatlarni haddan tashqari qisqartirsa, bu ichki talabni pasaytirib, iqtisodiy o‘shishni sekinlashtirishi mumkin.

Yuqori davlat qarzining quyidagicha ijobiy hamda salbiy tomonlari bor:





3-rasm. Yuqori davlat qarzining ijobiy va salbiy tomonlari


Ijobiy tomonlari:

1. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish – Agar qarz samarali investitsiya qilinsa (masalan, infratuzilma, ta'lim, texnologiyalar), bu iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
2. Inqirozlardan chiqish imkoniyati – Davlat iqtisodiy inqiroz yoki pandemiya kabi holatlarda qarz olish orqali iqtisodni qo'llab-quvvatlashi mumkin.
3. Samarali fiskal siyosat – Davlat muayyan sharoitlarda qarz orqali iqtisodiy faollikni oshirishi va ishsizlikni kamaytirishi mumkin.

Salbiy tomonlari:


1. Foiz to'lovlari hajmining ortishi – Yuqori qarz davlat byudjetida katta foiz to'lovlari yukini hosil qiladi, bu esa boshqa sohalarga ajratiladigan mablag'ni kamaytiradi.
2. Investorlarga bo'lgan ishonchning kamayishi – Agar qarz haddan tashqari oshsa, investorlar mamlakat iqtisodiyotini xavfli deb baholashlari mumkin, bu esa kredit olish shartlarini qiyinlashtiradi.
3. Inflyatsiya va valyuta qadrsizlanishi – Davlat qarzini to'lash uchun ko'proq pul bosib chiqarishi inflyatsiyaga va milliy valyutaning qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston energetika sohasiga investitsiyalar, tog' - kon sanoati salohiyatini kengaytirish loyihalari va boshqa infratuzilma loyihalari hamda ijtimoiy xarajatlarni ko'paytirdi. Bu 2020-2023 yillarda sof davlat qarzining (shu jumladan davlat tomonidan kafolatlangan qarzning) o'sish





sur'atlarining yiliga o'rtacha YaIMning 6,3% ga oshishiga va davlat va umumiy tashqi qarzni tez o'sishiga olib keldi.⁷ Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan berilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2024-yil yakuniga kelib O'zbekistonning umumiy qarz xajmi 40199 mlrd dollarni, bunda tashqi qarz ko'rsatkichi 33720 mlrd dollarni, ichki qarz ko'rsatkichi 6479 mlrd dollarni tashkil etadi, ya'ni YAIM ning 35% ni tashkil qiladi.




4-rasm. O'zbekiston davlat qarzining choraklar bo'yicha ko'rsatkichi⁸

O'zbekiston tashqi qarzi uch yo'nalishdagi kreditorlardan olinadi.

- Xalqaro moliya institutlari (XMI)
- Xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlari
- Investorlar

Jumladan, mamlakat tashqi kreditlarining 57% ulushi xalqaro moliya institutlariga, 31% ulushi xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlariga, qolgan 12% ulushi xalqaro investorlarga to'g'ri keladi. O'zbekiston qaytarishi kerak bo'lgan eng yirik kredit Jahon banki tomonidan ajratilgan — 7,63 mlrd dollar. Bu miqdor umumiy tashqi qarzni qariyb 23 foiziga teng. Davlat qarzi turli tarmoqlar bo'yicha taqsimlangan. Qarzni eng katta qismi ya'ni 45 foizi byudjetni qo'llab quvvatlash uchun ajratilgan. Kreditlarning 17 foizi yoqilg'i-energetika sanoatiga ajratilgan. Xususan, qishloq va suv xo'jaligiga 3,78 mlrd dollar (umumiy qarzni 9 foizi), transport va transport infratuzilmasi tarmog'iga 2,86 mlrd dollarlik kreditlar jalb qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat qarzi tog'risidagi qonunchiligida davlat qarzining eng yuqori miqdori belgilangan. Davlat qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan oltmish foizdan oshmasligi kerak. Davlat qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan ellik





foizga yetganda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat qarzi ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan davlat qarzi miqdoridan oshmasligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga kiritadi.⁹ Hozirda O'zbekiston Respublikasi davlat qarzini boshqarish bo'yicha bir qator strategiyalarni amalga oshirmoqda. Quyida "Uzbekistan-2030" strategiyasining davlat qarzini boshqarish bo'yicha asosiy yo'nalishlari keltirilgan:

1. Byudjet intizomini mustahkamlash. Davlat byudjeti taqchilligini kamaytirish orqali davlat qarzini barqaror darajada ushlab turish maqsad qilingan. Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan 4 foizdan, keyingi yillarda esa 3 foizdan past darajada saqlash rejalashtirilgan.¹⁰

2. Soliq bazasini kengaytirish va soliq ma'murchiligini takomillashtirish. "Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish va soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali soliq tushumlarini oshirish ko'zda tutilgan. Soliq tizimini isloh qilish orqali davlat daromadlarini barqarorlashtirish mumkin.

3. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, raqobat muhitini yaxshilash orqali 2030-yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida ushlab turish va YaIM hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.¹¹


Ushbu strategiyalar davlatning qarz yukini kamaytirish va barqaror iqtisodiy siyosat yuritish uzoq muddatli taraqqiyotga zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar

Davlat qarzi har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutuvchi moliyaviy vosita bo'lib, u iqtisodiy o'sish, infratuzilma rivojlanishi va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega. Biroq, qarz miqdorining me'yoridan ortib ketishi iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya va soliq yukining oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun davlatlar qarz boshqaruvini samarali yuritish va qarz yukini kamaytirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishi lozim.

Davlat qarzini boshqarishning asosiy yo'nalishlari:

•Byudjet intizomini mustahkamlash – davlat xarajatlarini optimallashtirish va byudjet defitsitini kamaytirish.





- Soliq siyosatini takomillashtirish – soliqlarni to‘plash samaradorligini oshirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish.

- Iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish – ishlab chiqarish hajmini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va eksportni rivojlantirish.

- Qarz tarkibini diversifikatsiya qilish – ichki va tashqi qarz manbalarini muvozanatlashtirish, qisqa muddatli qarzar o‘rniga uzoq muddatli va past foizli moliyalashtirish manbalarini izlash.

- Davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish – qarz mablag‘larini infratuzilma va ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirish.

Davlat qarzini kamaytirish bo‘yicha takliflar:

Iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish – investitsiyalarni ko‘paytirish, eksportni rivojlantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali davlat daromadlarini oshirish.

Xorijiy sarmoyalarni jalb qilish – bevosita xorijiy investitsiyalarni ko‘paytirish orqali iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish va qarz yuklamasini kamaytirish.

Davlat mulkini xususiyashtirish – samarasiz davlat korxonalarini xususiyashtirish orqali davlat byudjetiga qo‘shimcha mablag‘ jalb qilish.

Yuqori samaradorlikka ega investitsion loyihalarni tanlash – davlat kredit mablag‘lari faqat yuqori daromad keltiruvchi loyihalarga yo‘naltirilishi kerak.

Davlat xarajatlarini qisqartirish – samarali xarajat nazorati orqali byudjet defitsitini kamaytirish.

Soliq bazasini kengaytirish – soliq tizimini takomillashtirish orqali davlat daromadlarini oshirish.

Davlat qarzini boshqarishning uzoq muddatli barqaror strategiyasini ishlab chiqish O‘zbekiston uchun ham dolzarb masala bo‘lib, samarali qarz boshqaruvi kelajakdagi makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bois, hukumat fiskal intizomni mustahkamlash, qarzni kamaytirish strategiyalarini takomillashtirish va iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini oshirish bo‘yicha tizimli choralarni amalga oshirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-yil 29-martda O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, Senat tomonidan 2022-yil 4-avgustda ma‘qullangan O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi to‘g‘risidagi O‘RQ-836-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq tasdiqlangan "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi.





3. Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li (2023) DAVLAT QARZI UNI BOSHQARISH ZARURLIGI VA DOLZARBLIGI. page 3
4. Davlat qarzi <https://uz.wikipedia.org/>
5. O'zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari <https://www.statista.com/statistics/531701/national-debt-of-lebanon/>
6. CEIC's economic database <https://www.ceicdata.com/en>
7. TRADING ECONOMICS| 20 million Indicators for 196 Countries <https://tradingeconomics.com/>
8. Lebanon- national debt 2023| Statista <https://www.statista.com/>
9. Essential Intelligence | S&P Global <https://www.spglobal.com/>
10. 'zbekiston Milliy axbarot agentligi <https://uza.uz/uz>

